

MATN TUSHUNCHASI VA TALQINI

Ergasheva Dilnoza Dilmurodovna,
*Alfraganus universiteti 1-bosqich
magistranti*

Ilmiy rahbar:
Yuldasheva Shaxlo Shukurlaevna,
*O‘zbekiston davlat jahon tillari
universiteti professori, pedagogika
fanlari nomzodi*

Annotatsiya. *Maqola matn tushunchasi va uning jamiyatdagi ahamiyati, muloqot jarayonida tutgan o‘rni, o‘rganilish tarixi, hamda bugungi kunda matn borasida olib borilayotgan izlanishlar haqida. Shuningdek, hozirgi kunda matnga nisbatan qanday qarash ustuvorligi, uning o‘qitilishdagi ahamiyati va nazariyasi, PISA tadqiqotlari va unga ko‘ra matn tushunchasi qanday anglashilyotganligi haqidagi fikr mulohazalar o‘rin olgan.*

Kalit so‘zlar: *matn, matn nazariyasi, nutq, PISA tadqiqotlari, savodxonlik, o‘qish va tushunish, kompetensiya.*

Insoniyat paydo bo‘libdiki, shaxs sifatida o‘zini anglashga, idrok etishga harakat qiladi. O‘z fikr va qarashlarini ma’lum ma’noda kimlar bilandir muhokama qiladi, bahs yuritadi, ularga tushuncha va tasavvurlarini ochiqlashga urinadi. Bu, albatta, muloqot jarayoni orqali vujudga keladi. Muloqot o‘rnatish esa og‘zaki (yuzma-yuz, telefon, ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari va h.k.lar orqali vujudga keladigan so‘zlashuv jarayonlari) va yozma nutq (maktub, internet tarmoqlaridagi yozishmalar h.k) orqali ifodalanadi. Muloqot o‘rnatishda ma’lum ma’noda axborot olish va uzatish jarayoni vujudga keladi. Bu jarayon matn vositasida amalga oshiriladi. Xususan, ibtidoiy jamoa davri haqida g‘orlarga, toshlarga chizilgan tasvirlar tushuncha beradi, kundalik yumushlari borasida tasavvur uyg‘otadi. Endigina dunyo yuzini ko‘rgan bola ham ta’bir joiz bo‘lsa ona qornidaligidayoq o‘ziga xos harakatlar, biroz vaqt o‘tishi bilan taqlid namoyishlari orqali atrofidagilar bilan munosabatga kirishadi. Bundan ko‘rinadiki, muloqot o‘rnatish ma’lum ma’noda axborot olish va uzatish jarayonini vujudga keltiradi. Bu matn vositasida amalga oshiriladi. Matn tushunchasi tilshunosligimizda biroz baxs va munozarali mavzulardan biri bo‘lib kelmoqda. Aynan, matn haqidagi qarashlar, nazariy fikrlarda har xillik mavjud.

Matn va uning tabiatini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar XX asr o‘rtalariga kelib paydo bo‘la boshladi. Bugungi kunda matnning maqomi, uning til sistemasidagi o‘rni, matnni lingvistik tahlil qilishda nimadan boshlamoq kerak, degan savollarga ham tilshunoslikning berayotgan javoblari bir-biriga unchalik mos

kelmaydi. Masalan, matnning maqomini belgilash masalasida ham ba’zan turli xil fikrlarga duch kelamiz. Matnning belgilar tabiati nimalardan iboratligi, matnni nutqiy jarayon deb atash lozimmi yoki matnni nutqiy jarayonning natijasi sifatida talqin etish kerakmi, matnni og‘zaki nutq bilan yoki yozma nutq bilan bog‘lab o‘rganish kerakmi, degan masalalar xususida ham turlicha nuqtayi nazarlarni uchratishimiz mumkin.

Matnning nutq kategoriyasi ekanligi masalasi bevosita “nutqiy jarayonning o‘zi” va “nutqiy faoliyat natijasi” tushunchalari bilan uzviy bog‘liqdir. Chex olimi K.Gauzenblas matnni ham nutqiy faoliyat sifatida, ham nutqiy faoliyat mahsuli sifatida og‘zaki nutqiy jarayon, deb talqin qiladi. I.R.Galperinning fikricha, matn yozma nutq mahsulidir, og‘zaki nutq esa turli qaytariqlarni, uzuq-yuluq gaplarni ham o‘z ichiga oladi va uni tekshiruv obyekti bo‘la oladigan matn deb e’tirof etish maqsadga muvofiq emas. Fransuz tilshunosi R.Bart: “Ichki bog‘lanishli bo‘lgan, muloqot maqsadida mazmunan o‘zaro birikkan gaplardan tashkil topgan nutqning har qanday parchasi matn deb ataladi” desa, polyak tilshunosi A.Boguslavskiy matnni bir necha gapdan tashkil topgan nutqiy material tarzida izohlaydi. Bunda u asosiy e’tiborini muallif nima haqida gapirayotgani va uning mazmuniga emas, balki mazkur matn qanday komponentlardan tuzilayotganiga qaratadi. K.Kojevnikova tadqiqotlarda asosiy e’tibor matnning bog‘lanishli nutq mahsuli ekanligiga qaratiladi va uning mazmuniy jihatdan tugallangan bo‘lishi alohida uqtiriladi”¹[3:5-6]. Bunday nazariya va qarashlar bugungi kun tilshunosligida anchayin qizg‘in muhokamalardan biriga aylangan. Shunday fikrlar xilma-xilligini ko‘plab keltirishimiz mumkin: “Biz odatda alohida so‘zlar bilan emas, gaplar va matnlar bilan gapiramiz” (X.Vaynrix). “Agar biz gapirsak, faqat matnlar bilan gapiramiz” (P.Xartman). “Til faqat matnlar shaklida va matn tuzish vazifasida kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasidir” (P.Xartman). “Biz tildan foydalanganimizda asosiy birlik so‘z yoki gap emas, balki matndir” (M.A.K. Xellidey). “Bizning kunlarimizda tilning oliy va eng mustaqil birligi gap emas, balki matn ekanligi umum e’tirofiga sazovor bo‘lib bormoqda” (V.Dressler)”²[5:12]

Turkiy tillar tilshunosligida ham matn yuzasidan ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, M.F.Kazembek, M.Begliyev, M.Z.Zakiyev, D.Tikeev, G.G.Saitbattalovlarning matn yuzasidagi ilmiy tadqiqotlari ham bunga misol bo‘la oladi.³[2:] O‘zbek tilshunosligiga matn nazariyasining olib kirilishi va yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarilishida N.M.Turniyozov, B.Yo‘ldoshev, A.Mamajonov,

¹ Qurbonova M., Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014. – 5-6- betlar.

² Yo‘ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. 12-bet.

³ Amanov A.S. Turkiy tillar tilshunosligidagi matn nazariyasi va mohiyati talqini. 2021. 689-696-bb.

E.Qilichev, M.Hakimov, M.Yo‘ldoshev, S.Boymirzayevaning tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etdi. Shu tariqa o‘zbek tilshunosligida ham matn har tomonlama turli aspektlarda tadqiq qilindi va bu boradagi tadqiqotlar davom etmoqda⁴ [5:6]. Turkiy tillarda matn turli terminlar bilan ataladi va ta’riflanadi. Buni quyidagi qiyosiy jadvaldan ko’rish mumkin:

TURKIY TILLARDA MATN TUSHUNCHASINING IFODALANISHI

T/r	Tillar	Nomlanishi	Ta’rifi
1	O‘zbek	Matn	Matn [a.- yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst] 1. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. 2. Bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi.
2	Turk	Metin	Metin, Arapça'ya mensup bir kelime olup, "mtn" köklerinden türemiş, 'yazı parçası, yazıyı oluşturan unsurların her bir bölümü' olarak tanımlanmıştır. 1. Bir yazıyı biçim, anlatım ve noktalama özellikleriyle oluşturan kelimelerin bütünü, tekst. 2. Basılı veya el yazması parça şeklinde tanımlanmıştır.
3	Qozoq	Мәтін	Мәтін (текст; text) — 1) баспаға шығаруға арналған пішімді немесе бастапқы түрдегі бедер белгілік мәліметтер бөлшегі; 2) хабардың алмастыру хаттамасының ерекшеліктерімен байланысы жоқ ақпарат бөлігі; 3) бастапқы программаның жазбасы. Объектілік немесе жүктемеленетін модульдің бөлігі.
4	Qirg‘iz	Текст	Текст (лат. textus — кездеме, бирикме) — басылган, жазылган же оозеки формадагы

⁴ Yo‘ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. 6-bet.

			сөз (чыгарма); адабият, фольклор жана жазуунун бардык түрү; 2) тил эрежесине ылайык курулган сүйлөмдөрдүн ырааттуу катары. 3) түшүндүрмөсүз жана тиркемесиз жазылган автордук чыгарма; 4) басма сөз чыгармаларынын иллюстрациядан башка бөлүгү; 5) кегли (өлчөмү) 20 пунктка (7,52 мм) барабар басмаканалык арип.
5	Turkman	Tekst	Ýazylyan, döredilen iş, eser we şonuň ýaly-da onuň bir bölümi.
6	Ozərbayjo n	Mətn	Mətn (lat. textus "parça; hörülmə, əlaqə, uyğungəlmə") — bir qrup cümlənin uyğun halda və məntiqli əlaqəsi.

Matnga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha ta‘rif beriladi: [a. — yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst] 1. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. 2. Bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi⁵ [6:587]. Ushbu ta‘rif matnga doir barcha xususiyatlarni o‘zida jamlagan deb kelinar edi. Endilikda matn bundanda kengroq tushuncha ekanligi o‘z isbotini topmoqda.

Kundalik hayotimizda matnni tushunish, undagi belgi va xususiyatlarni tahlil qilib amaliyotda qo‘llay olish asosiy va dolzarb muammolardan biri bo‘lmoqda. Nagaki, atrofimizni turli axborot va manbalar qamrab oldi. Biz ulardagi haqqoniylikni, keraklilik darajasini ajratib olganimiz holda, o‘z o‘rnida qo‘llay olish ko‘nikmalariga ham ega bo‘lishimiz lozim. Chunki matn bilan ishlash muloqot jarayonining asosidir.

Bu borada filosoflar, psixologlar, o‘qituvchilar, tilshunoslar, adabiyotshunoslar, metodistlar va boshqalar shug‘ullanib kelmoqda. Rossiya ta‘lim akademiyasi akademigi G.G.Granik nazorati ostida mualliflar guruhi matnni tushunish muammolariga bag‘ishlangan maqolalar turkumini e‘lon qilishgan va bugungi kunda o‘qish savodxonligi bo‘yicha tadqiqotchilarning ham savollariga javob topishda yordam berishi mumkin. O‘qish va tushunish muammosi o‘tgan asrda bugungi

⁵ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. 587-б.

kunimizdagidek dolzarb masala sifatida qo‘yilmagan. Chunki dunyoning boshqa mamlakatlariga qiyoslaganda mamlakatimizda (sobiq ittifoq hududidagi boshqa davlatlarda bo‘lgani kabi) o‘qishga, mutolaaga katta e‘tibor qaratilgan⁶ [4:12]. Bunda o‘qish tezligi, yozish savodxonligi birlamchi vazifa sanalgan.

Hozirgi kunda tez-tez tilga olinayotgan 15 yoshli bolalar savodxonligini baholovchi PISA tadqiqotlarida esa matn va uni tushunish borasidagi qarashlar bir muncha farqli. PISA tadqiqotlari matnni shunchaki o‘qish yoki grammatik bilimlar bilan chegaralanmay mohiyatni tushunib yetish va tahlil qilish ko‘nikmalarini birlamchi vazifa sifatida ko‘rdi. O‘quvchi matnni shunchaki o‘qibgina qolmay undan to‘g‘ri foydalanishi, undagi belgi va tushunchalarni tahlil qilib, ma‘lumot ola bilishi kerak. Bunday yondashuv o‘z navbatida o‘quvchida kuzatuvchanlikni matn bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantiradi.

PISA tadqiqotlarida pragmatik tushunchalar deb ataladigan tushuncha turi sinovdan o‘tmoqda. O‘quvchilar ona tili darslarida turli xil va janrdagi matnlar bilan, ko‘proq badiiy va publitsistik matnlar ustida ishlaydilar, ammo PISA tadqiqotlarida badiiy va publitsistik matnlardan farqli o‘laroq, reklama, mahsulot yorlig‘i, ishga joylashish uchun ariza va hatto kiyim tanlovi haqida, jadvallar, mehmonxonada telefondan foydalanish, muzlatgichdan foydalanish haqidagi matnlar taqdim etilgan⁷ [4:14]. Odatiy kundalik faoliyat davomida duch kelishimiz tayin bo‘lgan shunday mavzudagi matnlarni o‘qish va tushunish o‘quvchini hayotga tayyorlaydi va ta‘lim samaradorligini yanada oshiradi.

Zero, yurtboshimiz ta‘kidlaganlaridek, jismoniy yetuk va barkamol avlodni tarbiyalash bundan buyon ham ustuvor vazifamiz bo‘lib qoladi⁸ [1:23].

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar uchun. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
2. Amanov A.S. Turkiy tillar tilshunosligidagi matn nazariyasi va mohiyati talqini. – Toshkent, 2021. – 689 – 696 b.
3. Qurbonova M., Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Toshkent: Universitet, 2014. – 115 b.
4. Yuldasheva Sh.Sh. Ona tili fanidan PISA topshiriqlari u qanday bo‘lishi va bajarilishi kerak? – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 88 b

⁶ Yuldasheva Sh.Sh. Ona tili fanidan PISA topshiriqlari u qanday bo‘lishi va bajarilishi kerak? – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 12-b.

⁷ Yuldasheva Sh.Sh. Ona tili fanidan PISA topshiriqlari u qanday bo‘lishi va bajarilishi kerak? – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 14-b.

⁸ Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar uchun. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 23-b.

5. Yo‘ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – 224 b.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.

